

HOZIRGI AVLODNI O'QITISHDA DARS SIFATINING SAMARADORLIGIGA ERISHISH YO'LLARI

Raxmankulova Barna Oktamxanovna

Dotsent, i.f.n, TIQXMMI

Kubyashev Kurash Egamovich

Assistant, TIQXMMI

Abdullayeva Muyassar Abdugapparovna

Toshkent sh., 300-Davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabi,

“Informatika va AT” fani o'qituvchisi

Annotatsiya.

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi demokratik, huquqiy va fuqarolik jamiyatini qurish yo'lidan borayotgan bir paytda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, hozirgi kun avlodi, ularning dunyo qarashlari va ularga ta'lim-tarbiya berishda e'tibor qaratish lozim bo'lgan tomonlari haqida ga yuritiladi.

Аннотация.

В этой статье рассматриваются реформы, происходящие в сфере образования в то время, когда Республика Узбекистан находится на пути построения демократического, правового и гражданского общества, нынешнее поколение, их мировоззрение и аспекты, на которых им нужно сосредоточиться при обучении.

Kalit so'zlar:

Avlod, raqamli iqtisodiyot, ilm-fan, ta'lim-tarbiya, kom'pyuter texnologiyalari, raqamli immigrantlar, raqamli aborigenlar.

Ключевые слова:

Поколение, цифровая экономика, наука, образование, компьютерные технологии, цифровые иммигранты, цифровые аборигены.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi demokratik, huquqiy va fuqarolik jamiyatini qurish yo'lidan borayotgan bir paytda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi va harakatga keltiruvchi kuchi har tomonlama rivojlangan barkamol insonni tarbiyalashdan iboratdir. Mamlakatimiz rivojlanishining muhim sharti zamonaviy iqtisodiyot, fan, madaniyat, texnika, texnologiya rivoji asosida kadrlar tayyorlashning takomillashgan tizimining amal qilishiga erishishdir. Ta'limning bugungi vazifasi o'quvchilarni kun sayin oshib borayotgan axborot - ta'lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iboratdir. Buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur[1,2].

Masalaning qo'yilishi. Ta'limning samaradorligini oshirish va bilimlarni to'la egallashlariga erishish, shaxsning ta'lim diqqat markazida bo'lishini va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlashda ta'lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan va o'zining soha bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol usullarni biladigan, ulardan o'quv va tarbiyaviy mashg'ulotlarni tashkil etishda mukammal foydalana oladigan, psixologik bilimlarga texnologik yondashuv asosidagi o'qitish uslubiyotlarini ham egallagan bo'lishlari zarur. Ana shularni e'tiborga olgan holda, pedagoglardan quyidagi malakalar talab etiladi:

- o'qitish jarayonining samaradorligini ta'minlovchi pedagogik malakalarga ega bo'lishi;
- o'qituvchi faoliyatining metodologik asosi sifatida pedagogik bilimlar tizimini yara oladigan;
- kasbiy faoliyatida foydalaniladigan uslublar tizimi sifatidagi o'qitish texnologiyalarini egallagan.

Asosiy qism. Mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlagan ishlarimizni jadal davom ettirish va yangi, zamonaviy bosqichga ko'tarish maqsadida, 2020 yil – Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili, deb e'lon qilindi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ilm-ma'rifat va texnologiyalar rivojiga alohida ahamiyat qaratib aytganlaridek: “Sharq donishmandlari aytganidek, “Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, Eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, Eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!”. Shu sababli, hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish, uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak. Taraqqiyotga erishish uchun, raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart”[2].

Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat Umummilliy Dasturiga kiritilgan ta'lim muassasalarini axborot-kommunikatsion texnologiyalari bilan jadal sur'atlar bilan ta'minlanmoqa. Binobarin, ta'lim jarayoniga kompyuter, video, elektron doska, mediatexnologiyalar kabi bir necha turdagi zamonaviy texnik vositalar shiddat bilan kirib kelar ekan, ulardan foydalanish hozirda Xalq ta'limi vazirligi tomonidan asosiy masala sifatida ko'rilmogda. Mediatexnologiyalar kitob o'qishdan ko'ra, televizor ko'roshni afzal deb biladigan insonlarga, ayniqsa o'sib kelayotgan yosh avlodga kuchli ta'sir etmogda[3].

Katta hajmdagi yangi axborotlar, reklamalar, televideniya ko'rsatuvlarida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish, elektron o'yinlar, elektron o'yinchoqlarning keng tarqalishi va ulardan foydalanish bolalarning ta'lim-tarbiyasi, ularning atrofdagi voqea-hodisalar to'g'risidagi tasavvurlari, tafakkuri hamda idrokiga katta ta'sir etmogda.

Ma'lumki, bolaning o'zi yoqtirgan amaliy faoliyatining mazmuni sezilarli darajada o'zgarib boradi. Vaqt o'tishi bilan uning o'yinlari, yoqtirgan qahramonlari va qiziqishlari o'zgarib ketadi.

Ilgari bola istalgan mavzuga oid axborotlarni an'anaviy olgan bo'lsa, ya'ni darslik, ma'lumotnomalar, adabiyotlar, o'qituvchi beradigan saboqlar, darsni konspektlashtirish vositasida egallagan bo'lsa, bugungi kunga kelib, asosan televizor, radio, kompyuter, internet orqali o'zlashtirmogda. Shu sababli ham o'qituvchi zamonaviy voqelikka to'g'ri yondashgan holda ta'lim jarayoniga axborot uzatishning yangi metodlarini olib kirishi zarur.

Bu nima uchun kerak? Ta'lim sohasidagi dunyoga mashhur loyihachi, maslahatchi, yozuvchi va oratorlardan biri bo'lgan Mark Prencki bugungi kun odablarini ikki turga ajratadi: Raqamli aborigenlar va Raqamli immigrantlar.

«Raqamli aborigenlar» - bu kompyuterlar, o'yin pristavkalari, mp3-pleyerlar, videokamera, mobil. Telefonlar va boshqa raqamli o'yinchoqlarga boy dunyoda tug'ilgan barcha odamlardir. Bu odamlar uchun Internet hayotning ajralmas qismiga allaqachon aylanib bo'lgan.

«Raqamli immigrantlar» - bular raqamli olamda tug'ilmagan, ammo raqamli texnologiyalardan u yoki bu darajada foydalana oladigan odamlardir. Oddiy immigrantlar kabi raqamli immigrantlar ham «aktsent» bilan muomala qilishadi.

Agar kompetent bir fikr yuritadigan bo'lsak, zamonaviy ta'limdagi aql bovar qilmas holat shuki, «raqamli aborigenlar»ni bugungi kunda «raqamli immigrantlar» o'qitmogda. Zamonaviy texnika terminlari bilan so'zlashadigan o'quvchilar orasida o'qituvchi boshqa tilda zo'rg'a gapirayotgan chet ellik kishi kabi tuyuladi.

Xo'sh, raqamli dunyoda tug'ilgan bugungi kun avlodi (NetGen) qanday yo'l tutadi, u axborotni qaysi yollar bilan o'zlashtiradi, qayta ishlaydi va uzatadi? U quyidagicha yo'l tutadi:

- informatsiyani joyidayoq darhol ishlatiladi;
- parallel ravishda bir nechta ishlarni amalga oshiradi - parallellik va ko'pmasalalik;
- matn emas grafika;
- tarmoqda harakatlanish;
- birgalikdagi harakat;
- kitoblar o'rniga o'yinlar;
- jiddiy ish qilish o'rniga ko'ngilochar ish (fun.);
- musiqa tinglab va televizor ko'rib turib bilim olish;
- huzur olgan holda bilim olish mumkin;
- o'yin o'ynab bilim olish mumkin.

Brandon Hall Research: «Chindan ham o'tgan asrning 80-90 yillarida tug'ilganlar o'ziga xos tomonlari bilan boshqa odamlardan ajralib turadimi va ajdodlari uchun bexato ishlagan o'qitish usullari chindan ham endi bu avlodga kelib samarasiz bo'lib qoldimi?»

Keling, turli avlodlarni tavsiflab chiqaylik. Tadqiqotchilarning fikricha, bugungi kun odamlari 4 avlodga bo'linadi:

№	Avlodlar	Tug'ilgan yili	Umumiy jihatlari va qadriyatlari	Faollarining o'ziga xos jihatlari
I	An'anaviychilar yoki Ikkinchi Jahon urushi yillari avlodi	1938-1945 yy	Ierarxiyani ma'qul ko'rishadi, moliyaviy barqarorlikka asoslanishadi, hokimiyatni hurmat qilishadi, ayni paytda qonun-qoidani birinchi o'ringa qo'yishadi(rule-makers)	Sofdil va intizomli, boshqalarni hurmat qiladi, 62on ova avtoritar xarakterga ega
II	Bebi bumerlar	1946–1964 yy	G'oyaparvar, raqobatchi, cho'qqilarga intiluvchi.	O'zaro do'stona munosabatga yo'naltirilgan, kelishuvga moyil, demokrat.
III	X avlod	1965–1980 yy	O'ziga ishonishadi, qoidalarini o'zgartirishga harakat qilishadi, o'z «qabilasi» va «jamoasiga» moslashishadi, ma'lumot ko'p bo'lgan holatlarda o'zlarini yengil his qilishadi	Maqsadni ko'zlovchi, yo'naltirilgan, boshqalarni eshitishga tayyor
IV	Y avlod	1980–2006 yy	O'ziga ishongan, sabrsiz, oilaga tayanuvchi, texnologik bilimli, ta'limni qadrllovchi	Maqsadni ko'zlovchi, yo'naltirilgan, boshqalarni eshitishga tayyor

Ko'rinib turibdiki, hozirgi kun avlod yoshlari **Y**-avlod hisoblanadi. Bu avlod bilan olib boriladigan pedagogik faoliyatda sifat va samaraga erishish uchun bu avlodning qiziqishlarini hisobga olish kerak bo'ladi. Xo'sh, bugungi kun bolalari nimani ma'qul ko'radi? Bu savolga javob topish uchun tadqiqot o'tkazilgan.

Y-avlod: ular nimani ma'qul ko'radi? (tadqiqot natijalari internetdan olingan):

Ta'lim:	Muloqot:	Informatsiya bilan ishlashda:	Hayot tarzi:
eksperimental, faol, amaliy, Yuzma-yuz. Ko'p holatlarda o'yin (fun) tarzidagi ta'lim. Texnologiya – hayotning bir qismi.	Ijtimoiy tarmoqlarda o'zaro harakat, telefon orqali on-laynda tez xabar almashish (qo'llanadigan til – abbreviaturalar va qisqartmalar), birgalikda harakat qilishga moyillik	Har xillikning kuchini yaxshi tushunishadi (faqat bitta ma'lumot manbasidan foydalanishmaydi); e'tiborni juda tez boshqa narsaga qarata olishadi; biror narsaga chuqurroq kirishish arziydimi yoki yo'qmi, fahmi yetadi; istalgan javobni tez qaytara olishadi	Xayotning aniq bir momentida yashashadi; har doim «aloqada», ko'p hollarda sutkasida 24 soat; natija olishga yo'nalgan (Ularni kimgadir o'xshatishsa va yaxshi baho berishsa, ularga yoqadi); komandada ishlashni ma'qul ko'rishadi

Tadqiqot natijalaridan ko'rinadiki, bu avlod an'anaviylikdan qoniqishmaydi[14-15].

Bugungi kun avlodiga ta'lim-tarbiya berish jarayonida samaradorlikka erishish uchun nima qilish kerak?

Bugungi kunda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan intellektual salohiyatga ega, ilm-fanning zamonaviy yutuqlari asosida mustaqil fikr va mushohada yurita oladigan, mustaqil ravishda zaruriy axborotlarni izlab topadigan va ulardan tahlil asosida zaruriylarini ajratib oladigan, barcha bilan muloqotga kirisha oladigan, ta'lim muassasasida olgan bilimlarini hayotiy ehtiyojlarida qo'llay oladigan yoshlarni tarbiyalab kamol topishlarida katta e'tibor qaratilgan. Buning uchun esa o'quvchilarimizni boshlang'ich sinflardan boshlab bunga tayyorlab borish kerak, ya'ni boshlang'ich fanlar bo'yicha chuqur bilim berish, chet tillarini puxta o'rgatish va axborot texnologiyalari bo'yicha kerakli zarur malakalarni shakllantirib borish lozim[4-9].

Ma'lumki, hozirgi kunda axborotlar olamida yashayapmiz. O'qishda ham, ishdagi ham, kundalik faoliyatda ham kompyuter texnika vositalariga duch kelamiz va bular siz bugungi kunimizni tasavvur ham qila olmaymiz. Shunday ekan, kompyuter va uning boshqa texnik vositalaridan to'g'ri va oqilona foydalanishga o'rgatish kerak. Shu bilan birgalikda o'rganilgan bilim, ko'nikma va malakalaridan kundalik hayotlarida uchraydigan muammolarni hal etishda kompetentlik yondoshuvga asoslangan holda foydalanadigan qilib o'qitish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони. 4-бўлим
2. Ўзбекистон Республикаси Кадрлар тайёрлаш миллий дастури // — Баркамол авлод — Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Тошкент: Шарқ, 1997.– 31–61 б.
3. Раҳманкулова Б.О., Сапарова Д.П. Цифровая платформа в системе образования // «Интернаука», № 27(156) 2020, 52-53 стр. <https://www.internauka.org/journal/science/internauka/156>
4. Raxmankulova B.O., Saparova D.P. Axborot xurujiga qarshi kurashda onalarning roli // “Ilm – ma’rifat, va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda yosh xotin-qizlarning innovatsion g’oya va tashabbuslari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi materiallar to’plami, Yoshlar nashriyot uyi, Toshkent 2020, 47-424-betlar.
5. Раҳманкулова Б.О., Айнакулов Ш.А., Зияева Ш.К. Онлайн-обучение – требование сегодняшнего дня. Интернаука, Студенческий вестник. 24 (74) часть 2, 2019, 95-98с.
6. Зияева Ш., Раҳманкулова Б.О. Массовые открытые онлайн курсы в высшем образовании. Российский научный журнал “Научные горизонты». №11 (27), 2019.
7. Шодманова Г., Раҳманкулова Б.О., Зияева Ш.К., Сапарова Д.П. Использование цифровой платформы в системе образования. // «Оммавий очик онлайн курсларни яратиш назарияси ва амалиёти» мавзусида Республика илмий-амалий онлайн интернет анжумани материаллари, Урганч, 22-май 2020
8. Раҳманкулова Б.О., Зияева Ш.К., Сапарова Д.П., Еримбетова Г.У. Он-лайн обучение – современная система образования. // «Оммавий очик онлайн курсларни яратиш назарияси ва амалиёти» мавзусида Республика илмий-амалий онлайн интернет анжумани материаллари, Урганч, 22-май 2020
9. Йулдошев Ж.Г., Усмонов С. Илғор педагогик технологиялар. - Т.: Укитувчи, 2004.
10. Педагогика: 1000 та саволга 1000 та жавоб / Мет. кўлл. У.И.Иноятов,
11. А.Муслимов, М.Усмонбоева, Д.Иномова. - Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2012. - 193 б.
12. Толипов У., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг тадбикий асослари - Т.: 2006.
13. Натанзон Э. Ш. Приемы педагогического воздействия. - М, 2002. - 202 с.
14. <http://www.marcprensky.com> Digital Natives, Digital Immigrants
15. <https://infourok.ru/biblioteka/informatika>. Информатика-Infourok - Инфоурок